

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Technical Sciences, Professor.
2. Akhmedov Khojiakbarxon Dilshotovich – Rector of the Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences (PhD equivalent), Associate Professor.
3. Gulyamov Saidahrar Saidakhmedovich – Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Economic Sciences, Professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich - Professor at the National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers," Doctor of Technical Sciences.
5. Sultanov Mansur Kilichovich – Director General of the "Inno" Innovative Educational and Production Technopark under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation, Doctor of Technical Sciences, Associate Professor.
6. Shamshieva Nargizakhon Nosirkhoja qizi - Secretary of the Council of Tashkent State University of Economics, Doctor of Economic Sciences, Professor.
7. Mukhamedieva Dildora Kabilovna - Professor at Tashkent University of Information Technologies, Doctor of Technical Sciences
8. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Professor at Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Doctor of Economic Sciences.
9. Popkova Yelena Gennadyevna – President of the "Institute of Scientific Communications" of the Russian Federation, Doctor of Economic Sciences, Professor.
10. Dr. Goh Khang Wen – Vice-Rector of INTI International University, Malaysia.
11. Wang Cheng – Associate Professor at the "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" in the People's Republic of China, PhD.
12. Yuldoshev Nuritdin Kurbonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
13. Akramov Tohir Abdirakhmonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
14. Sobirov Azizbek Avazbekovich – Associate Professor at Tashkent State University of Economics, PhD.
15. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Head of the Department of International Scientific Journals and Ratings, Alfraganus University, Candidate of Economic Sciences.
16. Khotamov Ibodullo Sadulloyevich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences.
17. Turakulov Otabek Kholmizrayevich – Head of the Department of Engineering and Information Technologies at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
18. Yuldasheva Saodat Arislanovna – Head of the Department of Economics, Tashkent State Transport University, Candidate of Economic Sciences.
19. Giyosidinov Boburbek Baxtiyorovich - Acting Associate Professor at Tashkent State Transport University, Doctor of Philosophy.
20. Primov Sirojiddin Furqat ugli — Senior Lecturer at the Department of Business Management and Finance, Tashkent Institute of Management and Economics, PhD in Economics.

MUNDARIJA

Radjabov B.A.	Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribalari	3
Xakimov Z.A. Xidoyatov M.B.	O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	10
Soliyev D.J. Oxunova D.O.	O'zbekistonda islomiy moliya munosabatlarini joriy etish: muommo va yechimlari	18
Abdulfattoxonova X.	Sun'iy intellekt texnologiyalarining menejmentdagi qo'llanilishi: Imkoniyatlar va xavflar	25
Otaboyev F.O.	Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish nazariyalari evolyutsiyasi va xalqaro kapital parakatini tartibga solish	31
Sharipov Sh.X.	Smart purkagichlar texnologiyalarining adabiy tahlili	44
Mamasoatov D.R.	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	49
Han Zihao	A study on the impact of china-uzbekistan transportation connectivity projects on regional trade costs (e.g., the china-kyrgyzstan-uzbekistan railway)	54
Zhang Shaojie	A study on the economic effects of chinese aid in promoting the modernization of education in uzbekistan	61
Wang Anning	Trade Characteristics of Uzbekistan's Imports of Fruit and Vegetable Agricultural Products from Xinjiang, China	69
Omonturdiyev O.E.	O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish istiqbollari	82
Xaydarov S.X.	Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli bank xizmatlarining o'рни va bunda xorijiy mamlakatlar tajribasi	86
Sobirov A.A.	Marketing ekotizimini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari	92
Akramov T.A.	Korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish asosida raqobatbardoshligini oshirish	99
Abduraxmonova F.N.	To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish	107
Ботиров Л.Б. Хамидова Н.И.	Порядок организации системы бухгалтерского учета в промышленности строительных материалов	112
Hakimov A.L. Bozorboev X.T. Suyunov Y.B.	Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or xorijiy tajribalar tahlili	117
Сайдалиева Г.А.	Қишлоқ хўжалиги ерларини баҳолаш ва унинг натижаларидан фойдаланишнинг назарий ва услубий асослари	127
Mullajonov I.T.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari	136
Qudratxo'jayev A.Q.	Sanoat korxonalari faoliyatini aylanma iqtisodiyot modeli asosida takomillashtirish	143

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA MUNOSABATLARINI JORIY ETISH: MUAMMO VA ECHIMLAR

Soliyev Dilmurod Jamolovich

*Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Biznes boshqaruvi va moliya kafedrası
katta o'qituvchisi*

Oxunova Dilnavozxon Oybek qizi

*Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
2-kurs "Iqtisodiyot" yo'nalishi
F-IQ-102-24 guruh talabasi*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda islom moliyasini tashkil etish masalalari va muammolari tavsiflangan. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini tadqiq etish asosida mamlakatimizda islom moliyasini joriy etish yuzasidan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, murobaha, mushoraka, muzoraba, sukuk, ijara, istisno, qarzi hasan

Abstract: The article describes the issues and problems of the organisation of Islamic finance in our country. Based on the study of the best practices of foreign countries, proposals for the introduction of Islamic finance in the country are presented.

Keywords: Islamic finance, murabaha, musharaka, mudaraba, sukuk, rent, istisnah, debt-hasan.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы и проблемы организации исламских финансов в нашей стране. На основе изучения самого передового опыта зарубежных стран выдвигаются предложения по внедрению исламских финансов в нашей стране.

Ключевые слова: исламские финансы, муробаха, мушорака, музораба, сукук, иджара, истиснох, долг хасан.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka

erishganidan buyon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va moliya tizimini diversifikatsiyalash yo'lida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda Islomiy moliya tamoyillari asosida faoliyat yuritadigan moliya institutlarini joriy etish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Global miqyosda Islomiy moliya aktivlari 4,5 trillion dollarga yetgan bo'lsa, O'zbekiston

Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari va global holat. Islomiy moliya ning asosiy prinsiplari. Islomiy

bu bozorda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada O'zbekistonda Islomiy moliya munosabatlarini joriy etishdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari chuqur tahlil qilinadi. Islomiy moliyaning asosiy prinsiplari va tamoyillari, shuningdek ularning O'zbekiston iqtisodiyotiga moslashuvchanligi ko'rib chiqiladi.

moliya shariat qonunlariga asoslangan bo'lib, quyidagi tamoyillarga amal qiladi: Ribodan qochish - foizli shartnomalar

qat'iy man etilgan, chunki foiz iqtisodiy adolatsizlik va ijtimoiy nomutanosoblikni keltirib chiqaradi; G'orar va maysirning taqiqlanishi - noaniq shartlar va qimor shartnomalardan saqlanadi, bu esa shaffoflik va aniqlikni ta'minlaydi; Haqiqiy iqtisodiy faoliyatga bog'liqlik - moliyaviy operatsiyalar real tovarlar va xizmatlar bilan bog'liq bo'lishi, bu esa spekulyatsiyaning oldini oladi; Riskni bo'lishish - moliyaviy operatsiyalarda foyda va zarar bo'lishiladi, bu esa adolatli munosabatlarni shakllantiradi; Ijtimoiy mas'uliyat - moliyaviy faoliyat nafaqat foyda olishga, balki jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan; Moliyaviy shaffoflik - barcha shartnomalar aniq va

O'zbekistonda islomiy moliyani

joriy etish zaruriyati. Iqtisodiy Afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin: Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish - Islom dunyosidan sarmoya kiritish imkoniyati, ayniqsa Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlaridan investitsiya oqimini oshirish yo'li ochiladi. Moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish - an'anaviy bank tizimidan foydalanmaydigan aholini qamrab olish, aholining 60% dan ortig'i bank xizmatlaridan chetda qolgan. Eksport imkoniyatlarini oshirish - Islom mamlakatlari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish, halol mahsulotlar bozoriga

shaffof bo'lishi talab etiladi, bu esa ishonchni mustahkamlaydi. Global Islomiy moliya bozorining holati. 2024-yil holatiga ko'ra, Islomiy moliya bozori tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jami aktivlar 4,5 trillion dollarni, banklar aktivlari 2,8 trillion dollarni, sukuk emissiyasi 200 milliard dollarni, takaful bozori 50 milliard dollarni tashkil etib, Islomiy fintech kompaniyalari soni 500 tadan oshdi. Sohada yillik o'sish sur'ati 8-10%ni tashkil qiladi. Yetakchi mamlakatlarga Saudiya Arabistoni, Malayziya, BAA, Indoneziya, Qatar, Turkiya, Pokiston, Bahraynni kiritish mumkin.


kirish imkoniyati. Barqaror moliya tizimini shakllantirish - risklarni taqsimlovchi tamoyillar asosida, iqtisodiy inqirozlarga nisbatan chidamli tizimni shakllanishi. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish - yangi investitsiya manbalarini ochish, ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun qulay sharoit yaratiladi.

Puloqimlarini, diversifikatsiyalash an'anaviy moliya manbalariga qaramlik kamayadi.

Islomiy moliyani joriy etishning asosiy afzalliklari

Kategoriya	Afzalliklar	Ta'sir darajasi
Iqtisodiy	Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish	Yuqori
	Moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish (aholining 60%+ qismini qamrab olish)	Yuqori
	Eksport imkoniyatlarini oshirish	O'rta
	Barqaror moliya tizimini shakllantirish	Yuqori
Ijtimoiy-axloqiy	Ijtimoiy adolatni ta'minlash	Yuqori
	Moliyaviy savodxonlikni oshirish	O'rta
	Etik qadriyatlar asosida xizmat ko'rsatish	O'rta
	Jamiyatda ishonchni mustahkamlash	Yuqori

Ijtimoiy-axloqiy ahamiyati



Ijtimoiy-axloqiy ahamiyati.

Islomiy moliya tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, jamiyatning turli qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu tizim: Ijtimoiy adolatni ta'minlaydi - boy va kambag'al o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi;

Aholining moliyaviy savodxonligini oshiradi - moliyaviy bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantiradi; Etik qadriyatlar asosida moliyaviy xizmatlarni rivojlantiradi - axloqiy me'yorlar va qadriyatlarga rioya qiladi; Jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi - shaffoflik va ochiqlik tamoyillari asosida; Ma'naviy qadriyatlarni himoya

qiladi - diniy e'tiqod va qadriyatlarga mos keladi. Joriy etishdagi asosiy muammolar qonunchilik bazasining yetishmasligi. Islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilinmagan. Soliq va buxgalteriya hisobi sohasidagi normativlar moslashtirilmagan. Bank qonunchiligi va Islomiy moliya tamoyillari o'rtasidagi ziddiyatlar mavjud. Shariat qoidalariga muvofiq shartnomalarni tartibga solish

mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Nazorat mexanizmlari yo'q. Islomiy moliya institutlarining faoliyatini monitoring qilish tizimi ishlab chiqilmagan. Shariat nazorat qo'mitasini tashkil etish masalalari hal etilmagan. Markaziy bankning nazorat funksiyalari aniq belgilanmagan. Xalqaro standartlarga mos audit va nazorat tizimining yo'q.

Islomiy moliyani joriy etishdagi asosiy to'siqlar va yechimlar

To'siq turkumi	Muammo	Tavsiya etilgan Yechimlar
Qonunchilik	Maxsus qonunlar va tartibga soluvchi mexanizmlarning yo'qligi	Islomiy moliya qonunini qabul qilish; Soliq va buxgalteriya hisobi qoidalarini moslashtirish
Nazorat	Shariat nazorati va monitoring tizimining ishlab chiqilmaganligi	Shariat nazorat qo'mitasini tashkil etish; Xalqaro standartlarga mos audit tizimini joriy qilish
Institutsional	Malakali mutaxassislar va infratuzilmaning yetishmasligi	Maxsus o'quv dasturlarini joriy qilish; Xalqaro hamkorlikda malaka oshirish; Texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish
Ijtimoiy	Aholi va biznes orasida bilim va ishonch yetishmasligi	Keng ko'lamli targ'ibot va o'quv dasturlarini amalga oshirish; Amaliy loyihalarni namoyish qilish
Xalqaro integratsiya	Global Islomiy moliya tizimiga integratsiyaning qiyinligi	Xalqaro moliya institutlari (IFSB, AAOIFI) bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; Standartlarni uyg'unlashtirish

Institutsional muammolar. Mu ta-xassislar etishmasligi. Islomiy moliya sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilmagan. Xalqaro tajribaga ega mutaxassislarning yetishmaydi. O'qituvchilar va trenerlarning malakasi past. Til bilish darajasining cheklanganligi - arab va ingliz tillarini biluvchi mutaxassislar yetishmaydi. Infratuzilma muammolari. Islomiy banklar va moliya institutlari

uchun texnik imkoniyatlar cheklangan. Axborot-kommunikatsiya tizimla-rining rivojlanganlik darajasi past. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun zarur texnologiyalar yo'q. Bankomatlar va filiallar tarmog'i yetarli emas. Ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlar ma'lumot yetishmasligi. Aholining Islomiy moliya tamoyillari haqida bilim darajasi past. Biznes-muhitida Islomiy moliya

vositalariga ishonchsizlik mavjud. Noto'g'ri tushunchalar va stereotiplarning mavjudligi. Ommaviy axborot vositalarida yetarli targ'ibot ishlari olib borilmaydi. Xalqaro integratsiya muammolari. Global Islomiy moliya

Islom moliyasini joriy etishga ta-

kliflar. Qonunchilik islohotlari maxsus

qonunchilik bazasini yaratish. "Islomiy moliya faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilish zarur. Soliq va buxgalteriya hisobi sohasidagi imtiyozlarni joriy etish kerak bo'ladi. Bank qonunchiligini Islomiy moliya tamoyillari bilan uyg'unlashtirish kerak. Shariat qo'mitasining tarkibi va vakolatlari to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish zarur. Nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tarkibida Islomiy moliya bo'limini tashkil etish. Mustaqil shariat nazorat qo'mitasini tuzish. Xalqaro standartlarga mos nazorat tizimini joriy etish. Audit va hisobot berish tizimini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Institutsional rivojlantirish kadrlartayyorlash tizimini shakllantirish. Oliy o'quv yurtlarida Islomiy moliya mutaxassisliklarini ochish, Xalqaro tajriba almashish dasturlarini joriy etish, malaka oshirish kurslari va sertifikatlash dasturlarini tashkil etish, chet el universitetlari bilan hamkorlikda magistratura dasturlarini ochib sohani takomillashtirishda ilmiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlar kerak bo'ladi.

Infratuzilmani rivojlantirish.

Islomiy banklar tarmog'ini yaratish, sohaga oid zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun zarur texnik jihozlarni ta'minlash, mobil bank xizmatlari va onlayn

tizimiga integratsiya qiyinchiliklari, Xalqaro standartlarga moslashtirish muammolari, valyuta va moliya bozorlaridagi cheklovlar, Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning cheklanganligi muammolari mavjud.

platformalarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish Xalqaro tajribadan foydalanish. Soha tez rivojlanayotgan Malayziya, Saudiya Arabistoni va BAA kabi davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, Xalqaro Islomiy moliya tashkilotlari a'zoligiga qo'shilish, chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish, Xalqaro konferensiyalar va forumlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish kerak bo'ladi. Pilot loyihalarni amalga oshirish. Bir nechta banklarda Islomiy moliya bo'limlarini ochish, erkin, maxsus va kichik iqtisodiy zonalaridagi loyihalarda Islomiy moliyaning vositalaridan foydalanishni joriy etish. Sohada davlat-hususiylar sheriklik loyihalarini boshlash. Axborot-targ'ibot va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish sohaga oid axborot darajasini oshirish. Ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari olib borishni jadallashtirish va ommaga ko'proq axborot berib borish, o'quv qo'llanmalar va metodik qo'llanmalar nashr etish, konferensiyalar, seminarlar va treninglar tashkil etishni, jamoatchilik bilan muloqot kanallarini ochishni rag'batlantirish kerak.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish. Bunda ilmiy markazlar va laboratoriyalar tashkil etish, Xalqaro

konferensiyalar va seminarlar o'tkazish, Islomiy moliya sohasida ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish, ilmiy

Xulosa va tavsiyalar. O'zbekiston uchun Islomiy moliya tizimini joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ega. Ushbu yo'lda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etamiz: Qisqa muddatli chora-tadbirlar (1-2 yil). Birinchidan, qonunchilik bazasini yaratish - maxsus qonun va yo'riqnoma, nizomlarni ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, pilot loyihalarni boshlash, ya'ni 2-3 ta bankda Islomiy moliya darchalarini ochish. Uchinchidan, mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish - trening markazlari va kurslarni tashkil etish. To'rtinchidan, Islomiy moliya markazlariga aylanib borayotgan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlik shartnomalarini imzolash. Beshinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot kampaniyalarini boshlash kerak. O'rta muddatli chora-tadbirlar (3-5 yil). Birinchidan, Islomiy banklar tarmog'ini shakllantirish - kamida 5 ta ixtisoslashgan bank ochish. Ikkinchidan, Xalqaro standartlarga moslashtirish - AAOIFI va IFSB standartlarini joriy qilish. Uchinchidan, Sukuk va boshqa Islomiy moliya vositalarini joriy etish - davlat va korporativ sukuk chiqarish. To'rtinchidan, infratuzilmani modernizatsiya qilish - zamonaviy bank texnologiyalarini joriy qilish. Beshinchidan, kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish - oliy ta'lim muassasalarida mutaxassisliklar ochish. Uzoq muddatli

jurnallarda maqolalar nashr etishni qo'llab-quvvatlash zarur.

chora-tadbirlar (5-10 yil). Birinchidan, mintaqaviy Islomiy moliya markazini yaratish - Markaziy Osiyoda yetakchi markaz bo'lish. Ikkinchidan, global Islomiy moliya tizimiga to'liq integratsiya - xalqaro tashkilotlar a'zoliqi va faol ishtirok. Uchinchidan, fintech va digital banking sohasida innovatsion Islomiy moliya mahsulotlarini ishlab chiqish. To'rtinchidan, Islomiy moliya sohasida ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish - fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish. Beshinchidan, mintaqaviy va xalqaro miqyosda Xalqaro Islomiy moliya forumini tashkil etish. Yakuniy xulosa shundan iboratki, O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, iqtisodiy salohiyati va geografik joylashuvidan foydalangan holda Markaziy Osiyoda Islomiy moliyaning yetakchi markaziga aylanishi mumkin. Buning uchun izchil, tizimli va uzoq muddatli siyosatni amalga oshirish, shuningdek xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirish zarur. Islomiy moliya tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalashga, balki ijtimoiy adolatni ta'minlashga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ham xizmat qiladi. Kelajakda O'zbekiston nafaqat Islomiy moliya tamoyillarini qabul qiluvchi, balki ushbu sohada yangi standartlar va innovatsion yondashuvlarni yaratuvchi mamlakat sifatida ham tan olinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Baydaulet Ye.A. Islomiy moliya asoslari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 428 b.
2. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon [Matn] / R.I.Bekkin. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – 390 b. <https://asaxiy.uz/uz/product/r-i-bekkin-islom-iktisodiy-modeli-va-zamon>.
3. N.Nasrullayev va bosh. Buyuk allomalarimiz merosida ma’rifiy Islom. – T.: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. - 388 b.
4. Abdul Azim Islahi. History of Islamic Economic Thought Contributions of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis // Edward Elgar Cheltenham, UK, 2014. – 125p.
5. Р.И.Беккин. Исламская экономическая модель и современность. Издательский дом Марджани Москва 2009.- 316 см.
6. "Islomiy moliya: nazariya va amaliyot" - O'zbekiston Markaziy banki nashriyoti, 2023.
7. Global Islomiy moliya hisoboti 2024 - Islamic Financial Services Board.
8. Malayziya Islomiy moliya tajribasi - Bank Negara Malaysia, 2023.
9. Islomiy moliyaning xalqaro standartlari – AAOIFI.
10. Markaziy Osiyo mamlakatlarida Islomiy moliyaning rivojlanish tendensiyalari - Xalqaro valyuta jamg'armasi hisoboti.
11. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi - 2022-2026 yillar.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114